



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 23-yanvar, № 15 (9186)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI TINCHLIK KENGASHI NIZOMINI IMZOLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 21-22-yanvar kunlari Amerika yetakchisi tashabbusi bilan tashkil etilgan Tinchlik kengashi Nizomini imzolash marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Shveysariyada bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 22-yanvar kuni Davos shahrida Tinchlik kengashi Nizomini imzolash marosimida ishtirok etdi.

AQSH Prezidenti Donald Tramp raisligida o'tgan tadbirda Argentina, Armaniston, Bahrayn, Bolgariya, Indoneziya, Iordaniya, Marokash, Mo'g'uliston, Ozarbayjon, Paragvay,

Pokiston, Qatar, Qozog'iston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Vengriya va boshqa davlatlar rahbarlari, bosh vazirlari va tashqi ishlar vazirlari ham qatnashdi.

Tinchlik kengashining tashkil etilishi O'zbekiston tashqi siyosatining tinchlikni ta'minlash borasidagi tashabbuslari va

ko'p qirrali hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalariga mosdir. Yangi tuzilma BMTning Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi bilan qo'llab-quvvatlangan G'azo sektoridagi mojaroni tugatish bo'yicha kompleks rejani amalga oshirish doirasida shakllantirilmoqda.

Tinchlik kengashi mojaroning keskinlashuv xavfini kamaytirish, G'azo sektorida iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Bu farovon iqtisodiyot va tinch-osoyshta hayotga ega Yangi G'azoni barpo etish, istiqbolda Falastin davlatini tuzish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.

Kengash tarkibidan jahonning turli mamlakatlaridan nufuzli va ta'sirga ega yetakchilar o'rin oldi.

Kengash Nizomini imzolab, O'zbekiston uni ta'sis etgan davlatlardan biriga aylandi. Bu mamlakatimizning kengash faoliyatida izchil ishtirok etishga hamda barcha ta'sischi davlatlar va xalqaro sheriklar bilan yaqin hamkorlikda uning vakolatlarini hayotga tatbiq etishda amaliy hissa qo'shishga tayyorligini anglatadi.

Tinchlik kengashi Nizomini imzolash marosimi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban o'rtasida muloqot bo'lib o'tdi.

Yetakchilar do'stona ruhda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.

Ko'p tomonlama, shu jumladan, Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik istiqbollari alohida e'tibor qaratildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Prezidenti "Blackrock" kompaniyasi

direktorlar kengashi a'zosi va katta boshqaruvchi direktori Adebayo Ogunlesi bilan uchrashdi.

Ushbu yetakchi kompaniya bilan investitsiyaviy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari va ilgari erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

"Blackrock" kompaniyasining mamlakatimizdagi ustuvor loyihalarda ishtirok etish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Kompaniyaning O'zbekistondagi bir qator korxonalar kapitaliga kirish, qo'shma investitsiya mexanizmlarini ishlab chiqish va mamlakat investitsiya muhitini yaxshilash uchun xalqaro ekspertizani jalb qilish bo'yicha tashabbuslari qo'llab-quvvatlandi.

Davosdagi tadbirlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashuv o'tkazdi.

Mazkur yetakchi moliya instituti bilan strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini muhokama qilindi.

Bankning mamlakatimiz bilan hamkorligi barqaror strategik tushga ega. O'zbekiston YETTBning mintaqadagi eng yirik hamkori bo'lib qolmoqda. Bankning investitsiyalari hajmi qariyb 7 milliard dollarga yetdi.

2025-yilda amaliyotlar, shu jumladan, xususiy sektorga yo'naltirilgan mablag'larning hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

YETTBning "yashil" energiyani rivojlantirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik dasturlarni amalga oshirish, moliya bozorini isloh qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi yuqori baholandi.

Joriy yil uchun hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, xususiy sektor va infratuzilmani rivojlantirish, temir yo'l transportini raqamli transformatsiya qilish hamda boshqa masalalar belgilab olindi.

Ayollar va yoshlarni zamonaviy kasblar va biznesga o'qitish bo'yicha dasturlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Davosdagi tadbirlar doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich, AQSH savdo vaziri Govard Latnik, Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri, Global o'zgarishlar instituti raisi Toni Bler bilan ham suhbatlar o'tkazdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shveysariyaga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

XOTIN-QIZLAR MANFAATLARI USTUVORLIGI – ALOHIDA E'TIBORDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "BMT-ayollar" tuzilmasining O'zbekistondagi mamlakat dasturiy menejeri Zelixa Unaldi bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Suhbat avvalida Senat Raisi Unaldi xonimni O'zbekistonda ushbu lavozimda faoliyat boshlagani bilan tabrikkladi.

Uchrashuvda O'zbekistonning "BMT-ayollar" tuzilmasi bilan hamkorligining bugungi holati va istiqbollari, shuningdek, mamlakatda gender tenglikni ilgari surish, xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha navbatdagi tadbirlar muhokama qilindi.

O'zbekiston oila institutini

mustahkamlash, xotin-qizlarni huquqiy himoya qilish va gender tenglikni ta'minlash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratayotgani ta'kidlandi.

Bu borada "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, har qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, 2026-yilda O'zbekiston raislik qiladigan Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqotini rivojlantirish istiqbollari ham muhokama qilindi. "Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" kampaniyasi yakuniga doir taklif va tashabbuslar asosida kelgusida dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ham fikr almashildi.

Muloqot yakunida tomonlar hamkorlikni yanada mustahkamlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni rivojlantirishga qaratilgan qo'shma tashabbuslarni amalga oshirishga tayyor ekanligini bildirdi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Nuriddin ISMOILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri

YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI MARRALARI UCHUN BARCHAMIZ MAS'ULMIZ

Mamlakatimiz uchun 2025-yil barcha sohada muvaffaqiyatli yakunlandi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi O'zbekiston 2026-yilga juda katta rejalar bilan qadam qo'ydi. Xususan, Prezidentimiz Murojaatnomasida belgilangan 6 ta ustuvor vazifa Vatanimiz va xalqimiz farovonligini nazarda tutgani bilan yuksak ahamiyatga ega.

Nuqtai nazar


Murojaatnomada belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini yangidan qabul qilishda deputatlar o'z takliflari bilan faol qatnashmoqda. Murojaatnoma – davlatning

ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va institutsiyaviy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan asosiy siyosiy va strategik hujjat. U Qonunchilik palatasining qonunchilik faoliyati uchun qo'llanma

bo'lib xizmat qilsa, parlament fraksiyalariga o'z elektorati manfaatlarini va mafkuraviy munosabatlarini aks ettiruvchi pozitsiyasini shakllantirish uchun asos hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Murojaatnoma formatini an'anaviy ravishda siyosiy tizimni mustahkamlash, elita va jamiyatni strategik maqsadlar atrofida safarbar qilish vositasi sifatida ishlatgan. Shu bilan birga, Qonunchilik palatasidagi har bir fraksiya Murojaatnomani o'zining siyosiy o'ziga xosligi prizmasi orqali izohlaydi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, o'zining Yangi yil tabrigida ham xalqimizning qalbidagi eng ezgu g'oyalar bilan mujassam bo'lgan ulkan maqsadlarni ta'kidlab o'tdi. Jumladan, Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida minglab mahallalar infratuzilmasi yaxshilanadi, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasi olib kiriladi. Ekologiyani yaxshilash, "yashil" energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'riladi.



YANGI OʻZBEKISTONNING YANGI MARRALARI UCHUN BARCHAMIZ MASʼULMIZ

 Yil boshida Prezidentimiz yana ikkita muhim yoʻnalish boʻyicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yigʻilishida ham, tashqi siyosatni faollashtirishga bagʻishlangan videoselektorda ham oʻta muhim masalalar – xavfsizlik, tashqi aloqalar, ayniqsa, iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bogʻliq chora-tadbirlar belgilandi.

Yaqin kunlarda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturi ham qabul qilindi.

Yuqoridagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarning rivoji, aholi farovonligini yuksaltirish uchun belgilangan katta rejalarni amalga oshirish, albatta, parlament, Qonunchilik palatasi zimmasiga ham katta masʼuliyat yuklaydi.

Deputatlik korpusi davlatimiz rahbarining barcha tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlagan holda islohotlar va yangilanishlarning mustahkam huquqiy asoslarini yaratadi, amalga oshirilayotgan ishlarda samarali parlament nazoratini taʼminlaydi. Islohotlarning mazmun-mohiyati va natijadorligini aholiga taʼsirchan yetkazadi, saylovchilarning takliflarini qonunlarda aks ettiradi.

Parlament – islohotlarning faol ishtirokchisi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining oʻtgan davrdagi faoliyati, asosan, Prezidentimizning 2024-yil 18 – 20-noyabrda boʻlib oʻtgan parlament palatalari majlislaridagi dasturiy nutqlarida ilgari surilgan 8 ta ustuvor vazifani, shuningdek, davlat dasturidagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratildi.

Oʻtgan davrda qoʻmtalar faoliyati maqbullashtirilib, olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlarga mos ravishda yoʻlga qoʻyildi. Quyi palatadagi mavjud 12 ta qoʻmita faoliyati oʻrniga 10 ta yangilangan qoʻmita tashkil etildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbiarmonlar bilan faol muloqot qilish, ularning huquq va manfaatlarini parlament darajasida ifodalash maqsadida parlament tarixida ilk bor Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasi tuzildi. Yoshlarga oid davlat siyosatining izchilligini taʼminlash, yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash maqsadida Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi tashkil etildi.

Yoʻnalish va mazmuni jihatdan bir-biriga yaqin boʻlgan qoʻmtalar birlashtirilib, 2 ta qoʻmita – Mehnat, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy masalalar qoʻmitasi hamda Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi tuzildi. Shu davrda qoʻmtalarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqoti yanada kuchaydi. Jumladan, qoʻmtalar huzurida yetakchi mutaxassislar, ekspertlar, olimlar, amaliyotchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda 10 ta Jamoatchilik kengashi tuzildi.

Qoʻmtalarning ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari bilan 69 ta hamkorlik memorandumi imzolandi va birgalikdagi rejarlar tasdiqlandi. Qonunchilik palatasi va hukumat oʻrtasidagi hamkorlikning yangicha tizimi yoʻlga qoʻyilib, vazirlik va idoralarda rahbar oʻrinbosarlari qoʻmtalar bilan doimiy hamkorlik uchun masʼul qilindi.

Qoʻmtalar tuman va shahar darajasida soʻrov va talabni kuchaytirish, ular hokimiyati quyi boʻgʻiniga qashida tushdi hamda joylardagi muammolarni doimiy oʻrganib borishga ustuvor ahamiyat qaratib, 155 ta nazorat-tahlil tadbiri oʻtkazdi. Qonunlarning ularni etilishi holati hududlarga chiqqan holda oʻrganildi va ilgari yakunlari qoʻmtalarning sayyor yigʻilishlarida keng jamoatchilik va soha vakillari ishtirokida muhokama qilindi.

Quyi palata faoliyatida jamoatchilik ishtiroki yanada kuchaytirildi. Xususan, Jamoaviy tashabbuslar boʻyicha komissiya, Iqlim oʻzgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga oʻtishni tezlashtirish masalalari boʻyicha komissiya va Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uygʻunlashtirish boʻyicha komissiya tuzilib, faollik bilan ish olib bormoqda.

Jumladan, Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uygʻunlashtirish boʻyicha komissiya Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) aʼzo boʻlishi borasidagi barcha tadbirlarga faol qatnashmoqda. Komissiya aʼzolari tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalarining JST talablariga muvofiqligi doimiy ravishda oʻrganib borilmoqda.

Palataga kiritilgan 17 ta qonun loyihasi JST talablariga muvofiqligi huquqiy ekspertizadan oʻtkazildi. Nufuzli xalqaro va mahalliy darajadagi konferensiyalarida komissiya vakillari qatnashib, oʻz taklif va mulohazalarini bildirmoqda.

Qonunchilik palatasining 20-yanvar kuni boʻlib oʻtgan yalpi majlisida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qoʻllash boʻyicha bitimiga muvofiqqlashtirish hamda fitosanitar zararsizlantirish faoliyatini litsenziyalashga doir qonun loyihalarini qabul qilindi. Mazkur hujjatlar JST talablariga milliy qonunchiligimizni muvofiqqlashtirish yoʻlidagi muhim qadam boʻldi.

Xalqchil qonunlar – barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qonun ijodkorligi faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Bosh qomusimizga asosan Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan yangi institutlar amaliyotga tatbiq etildi.

Oʻtgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimiga, xalqimizning ogʻirini yengil qilishga qaratildi. 2025 – 2029-yillarga moʻljallangan qonun ijodkorligi dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur doirasida 40 ta qonun loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Qonun loyihasini parlamentga kiritishda uning korpusiyaga qarshi ekspertizasi va jamoatchilik muhokamasi natijalarini taqdim etishga doir talablar belgilandi. Qonun loyihalarini koʻrib chiqishning barcha bosqichlari, hujjat aylanishi toʻliq raqamlashtirildi.

Taʼkidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, qonunchilik takliflarini kiritish institutining joriy

etilishi fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki yanada kengayishiga va qonunlarning amaliyotdagi taʼsir kuchi ortishiga xizmat qilmoqda. Hisobot davrida Oliy Majlis Senati va Inson huquqlari boʻyicha vakil (ombudsman) tomonidan 6 ta qonunchilikka taklif quyi palataga kiritildi.

Xalq vakillari oʻzining qonunchilik tashabbusi huquqidan unumli foydalandi. Deputatlar tomonidan saylovchilarning takliflari va dolzarb masalalar yechimi aks etgan 22 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, quyi palataga kiritildi. Bu tashabbuskor subyektlar tomonidan kiritilgan loyihalarining 13 foizini tashkil etdi.

Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlar soni avvalgi yillardagiga qaraganda birmuncha koʻpaydi. Masalan, 2024-yilda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan qonunlar soni 110 tani tashkil etgan boʻlsa, bu raqam hisobot davrida 133 taga yetdi.

Oʻtgan davrda butun bir sohani tartibga soluvchi qator yaxlit qonunlar qabul qilindi. Suv kodeksi, “Davlat ijtimoiy sugʻurtasi toʻgʻrisida”, “Ijtimoiy ish toʻgʻrisida”, “Oziq-ovqat xavfsizligi toʻgʻrisida”, “Avtomobil yoʻllari toʻgʻrisida”, “Qishloq xoʻjaligi tavakkalchiliklarini sugʻurta qilish toʻgʻrisida”, “Qurilish maydonlarida chang va qum zararchalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga qoʻshimchalar va oʻzgartirish kiritish haqida”gi qonunlar shular jumlasidan.

Hisobot davrida Qonunchilik palatasi tomonidan davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega boʻlgan, xalqimiz farovonligini oshirishga, aholiga qoʻshimcha yengilliklar yaratishga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlashga qaratilgan qator muhim qonunlar qabul qilindi. Jumladan, “Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun bilan madaniy hordiq maskanlari hududini qisqartirish, xususiyashtirish hamda bunday obyektlar hududida bino-inshoot qurilishi qatʼiy taqiqlandi.

“Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun bilan madaniy hordiq maskanlari hududini qisqartirish, xususiyashtirish hamda bunday obyektlar hududida bino-inshoot qurilishi qatʼiy taqiqlandi.

Umuman olganda, norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini ishonchi himoya qilishga, xalqimizga qoʻshimcha qulayliklar va yengilliklar yaratishga, aholining ijtimoiy va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, qisqacha aytganda, xalqimiz manfaatlarini taʼminlashga ustuvor ahamiyat qaratildi. Bu esa davlatimiz rahbarining quyi palata majlisidagi nutqida *“Qonun qabul qilindimi, u albatta ishlashi kerak va odamlar hayotida sezilarli oʻzgarish boʻlishi lozim”* degan fikrlari hayotda oʻz ifodasini topayotganidan dalolatdir.

Oʻtgan davrda siyosiy partiyalar fraksiyalarining qonun ijodkorligi sohasidagi talabchanligi ortdi. Fraksiyalararo raqobat kuchaydi. Fraksiyalar qonun loyihalarida oʻz nuqtayi nazarlarini, qatʼiy yondashuvlarini namoyon etmoqda. Masalan, OʻZLiDeP va “Milliy tiklanish” DP fraksiyalari tomonidan “Taraqqiyot bloki” tuzildi, shuningdek, XDP fraksiyasi oʻzini parlamentdagi muxolifat fraksiya deb eʼlon qildi. Bu fraksiyalar faoliyatida fikrlar xilmaxilligini taʼminlashga, xalq manfaatlariga mos qonunlar ishlab chiqilishiga xizmat qilmoqda.

Fraksiyalar qatʼiy pozitsiyasi bilan 2 ta qonun loyihasi tashabbuskor subyektiga, 12 ta qonun loyihasi quyi palataning masʼul qoʻmtalariga qaytarildi. Fraksiyalar oʻz partiyalarining Saylovoldi dasturlarini amalga oshirishga faol kirishdi. Xususan, sayilgoh, xiyobon, bogʻ va daraxtzorlar muhofazasini kuchaytirishga, homilador ayollarning mehnat huquqlarini kafolati taʼminlashga, yer uchastkalaridan samarali foydalanishga, NNTni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan qator qonun loyihalari ishlab chiqilib, quyi palataga kiritildi.

Aytilish joizki, keyingi yillarda parlamentda koʻplab hayotiy zarur qonunlarning qabul qilinishi amaliyotda tezda oʻzining ijobiy natijasini bermoqda. Xususan, koʻpchilik kutayotgan va millionlab oilalarning hayotiga daxldor boʻlgan “Dala chetlarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi uzoq yillar mobaynida odamlarni qiyinab kelgan yerdan foydalanish borasidagi dolzarb muammolarni huquqiy jihatdan hal etishga zamin yaratdi.

Xalq vakillari saylov okruglarida

Prezidentimiz kambagʻallik darajasiga tushib qolgan odamlarning ongini oʻzgartirish, ularda ertangi kunga ishonch va kelajakka intilishni qoʻllab-quvvatlaydigan siyosiy kuch, albatta, avvalo, deputatlar boʻlishi zarurligini taʼkidlagan edi.

Davlatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, agar yangi saylangan deputatlarimiz oʻz okruglarida mana shu ishlarni amalga oshirsa, ular xalq ishonchini oqlashga va hurmatini qozonishga erisha oladi. Prezidentimizning ushbu tashabbusi juda muhim. Qonunchilik palatasi faoliyatida mazkur masala ustuvordir.

Shundan kelib chiqib, oʻtgan davrda deputatlarning saylov okruglaridagi ishlari samaradorligi yanada oshirildi. Saylovchilar bilan muloqotning yangicha tizimi yoʻlga qoʻyilib, yagona saylov okrugl boʻyicha siyosiy partiyalar roʻyxati asosida Qonunchilik palatasiga saylangan 75 nafar deputatning hududlardagi faoliyatini tashkil etish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Unga koʻra, proporsional tizim asosida saylangan deputatlar hududlarga masʼul qilinib, ularning saylovchilar bilan muloqoti yoʻlga qoʻyildi.

Shuningdek, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish

yoʻnalishida qator oʻrganishlar oʻtkazildi hamda fuqarolar va soha vakillari bilan ochiq muloqotlar qilinib, keng targʻibot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Oliy Majlis palatalari tomonidan “Aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini omallashtirish boʻyicha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻrgʻorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari uchun tavsiyalar” ishlab chiqilib, mahalliy Kengashlarga yetkazildi.

Mahalliy Kengashlar tomonidan yer soligʻi va ijara toʻlovlari uchun belgilangan minimal qiymatlarga koʻeffitsiyentlarni belgilash boʻyicha joylarda olib borilayotgan ishlar holati chuqur oʻrganilib, tahlil qilindi. Bu boʻyicha quyi palata va mahalliy Kengashlar deputatlari, soha vakillari ishtirokida 40 dan ziyod tadbirlar oʻtkazildi, respublikaning har bir hududida jami 14 ta seminar tashkil etildi.

Koʻrib chiqilgan yilda mahallagacha tushib, aholi bilan yuzma-yuz suhbat qilish tizimi kengaytirildi. Fermer xoʻjaliklari, tadbirkorlik subyektlari, kamida 5 ta ijtimoiy soha obyektiga borib, ochiq muloqot oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi. Qonunchilik palatasiga murojaat yoʻllagan fuqarolarni esa saylov okruglarida qabul qilishga oʻtildi.

Qonunchilik palatasining Fuqarolar qabulxonasida deputatlarning saylovchilarni videokonferensaloqa rejimida qabul qilish imkoniyati yaratildi.

Deputatlar har oʻyinog oxirgi haftasida – jami 10-marta saylov okruglarida boʻldi. 12 mingdan ortiq aholi nonadonlariga borib, 8,1 mingta ijtimo soha obyekti, 6,5 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari, 5 mingdan koʻp mahallalar faoliyati bilan tanishdi. 17,3 mingdan ziyod fuqarolar qabullari tashkil etilib, 10,2 mingdan ortiq uchrashuvlar oʻtkazildi. Ularda 242 mingdan ziyod odamlar qamrab olindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – ustuvor vazifa

Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengashning kengaytirilgan yigʻilishida davlat rahbari tomonidan qoʻyilgan vazifalar doirasida Qonunchilik palatasi tomonidan “Yoʻl narxatasi” ishlab chiqilib, har bir koʻmita, siyosiy partiyalar fraksiyalari, komissiyalar kesimida amalga oshirilishi zarur boʻlgan chora-tadbirlar aniq belgilab olingan edi.

Oʻtgan davrda bu borada keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, qonunlarda korrupsiyaga imkon beruvchi normalarni aniqlash va bartaraf etish, bu borada taʼsirchan parlament nazoratini taʼminlashga qaratilgan Qonunchilik palatasi Kengashining tegishli qarori qabul qilindi.

Deputatlar korpusi korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoyatchilikni jilovlash borasida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda faol ishtirok etishdi. Mamlakatimizning barcha hududida mahallalarga tushib, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar, muhim soha va tarmoqlarda maʼmuriy-byurokratik toʻsiqlar va korrupsiyaviy omillar hamda “qizil” toifadagi mahallalarda jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini chuqur oʻrganish, mavjud muammolarni parlament muhokamasiga olib chiqishga ustuvor ahamiyat berildi.

Belgilangan vazifalar ijrosini oʻz vaqtida va sifati taʼminlash maqsadida quyi palata Kengashining 2 ta qarori qabul qilinib, chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Parlament aʼzolari, huquq-tartibot organlari, tegishli masʼullardan iborat ishchi guruhlari tuzildi. Barcha hududlarda 14 ta nazorat-tahlil tadbiri oʻtkazildi.

Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi tomonidan byudjetdan eng koʻp mablagʻ oluvchi qator vazirliklar va idoralar (Maktabgacha va maktab taʼlimi, Sogʻliqni saqlash, Suv xoʻjaligi vazirliklari, Kadastr agentligi), shuningdek, tijorat banklarida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish ishlari boʻyicha oʻrganishlar oʻtkazildi.

Bundan tashqari, deputatlar saylov okruglariga oʻtkazilgan uchrashuvlarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazdi.

Oʻtgan yilda ushbu yoʻnalishda qator parlament nazorati tadbirlari ham oʻtkazildi. Xususan, “hukumat soati” doirasida sogʻliqni saqlash, sport, transport, qishloq xoʻjaligi va adliya vazirlarining, “parlament eshituvi”da esa Adliya, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirlarining, qoʻmtalarida mutasaddi rahbarlarning 37 marotaba eshituvlari tashkil etildi. Shuningdek, Qonunchilik palatasi majlisida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining milliy maʼruzasi eshitildi.

Maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari boʻyicha mahalliy Kengashlarda 197 ta muloqot va 19 ta sessiya oʻtkazildi. Joylardagi oʻrganishlar hamda aholi bilan muloqotlar davomida aniqlangan muammolarni huquqiy jihatdan hal etish, qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan 19 ta qonun loyihasi hamda 50 ga yaqin takliflar ishlab chiqildi.

Olib borilgan oʻrganishlar, oʻtkazilgan parlament nazorati tadbirlari muammolarni parlament muhokamasiga olib chiqish hamda ularga huquqiy, tashkiliy va amaliy yechimlar topishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Vakolatlar kengayib, nazorat funksiyasi kuchaydi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan taʼsirchan parlament nazoratini amalga oshirish boʻyicha Qonunchilik palatasiga aniq vakolatlar belgilangani deputatlar korpusi faoliyatiga yangicha mazmun-mohiyat olib kirdi.

Oʻtgan davrda keng koʻlamli, sifati parlament nazorati tizimiga oʻtilib, fraksiyalar va qoʻmtalar tashabbusi bilan 11 ta “parlament eshituvi”, 9 ta “hukumat soati” oʻtkazildi. Mansabdor shaxslarga esa 15 ta parlament va 169 ta deputat soʻrovi yuborildi.

Davlatimiz rahbarining Qonunchilik palatasiga ekologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, sanoat, xizmat koʻrsatish, investitsiya, eksport, migratsiya kabi masalalarga alohida eʼtibor qaratish boʻyicha bergan koʻrsatmalaridan kelib chiqib, parlament nazorati tadbirlarida ushbu sohalarida aholini oʻylantirib kelayotgan dolzarb masalalar koʻtarildi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha parlament nazoratini taʼminlashga ustuvor

ahamiyat qaratildi. Xususan, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hukumat aʼzolariga 4 ta parlament soʻrovi joʻnatildi.

Quyi palatadagi masʼul Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasida davlat organlari rahbarlarining 10 marotaba axboroti eshitildi. Shuningdek, “Chiqindilar toʻgʻrisida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi kabi 3 ta qonunning jiro qilinishi holati nazorat-tahlil tartibida oʻrganildi. Natijada qoʻmita tomonidan joylarda oʻtkazilgan oʻrganishlar, soha vakillari bilan boʻlib oʻtgan muloqot hamda nazorat-tahlil tadbirlari davomida aniqlangan muammolarning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida 9 ta qonun loyihasi va takliflar ishlab chiqildi.

Hisobot yilida deputatlar tomonidan 200 dan ziyod ekoreydlarda qatnashildi. “Atmosfera havosini muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonun ijrosi Toshkent shahri va Surxondaryoda oʻrganildi. 139 ta obyektida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish boʻyicha targʻibot tadbirlari oʻtkazilib, 3,1 ming nafardan ortiq fuqarolar qamrab olindi. Atmosfera havosiga zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish boʻyicha qonunchilikka takliflar ishlab chiqildi.

Aytilish joizki, oʻtgan davrda Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlari yanada kuchaytirildi va joylarda aholi farovonligini oshirish boʻyicha dasturlarni ishlab chiqishda parlamentning faol ishtiroki taʼminlandi. Byudjet tizimini va byudjet jarayonini takomillashtirish, xususan, Davlat byudjetining ijrosi toʻgʻrisidagi hisobot turlarini kengaytirish maqsadida “Byudjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Qonunga muvofiq, hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotlari Qonunchilik palatasiga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritilishi belgilandi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlarining ijrosi toʻgʻrisidagi choraklik hisobotlar Hisob palatasining tekzor xulosasi bilan birga kiritilishi nazarda tutildi.

Bundan tashqari, hududlarning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini Qonunchilik palatasiga kiritish va koʻrib chiqish amaliyoti joriy etildi. Shuningdek, quyi palata deputatlarining tegishli mahalliy Kengashlar tomonidan investitsiya loyihalarini koʻrib chiqish jarayonlarida ishtirok etishi belgilandi. Davlat byudjeti ijrosiga doir hisobotlarni atroflicha muhokama qilindi.

Prezidentimizning tashabbusi byudjet jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan qarorga muvofiq, 2026-yil yanvardan boshlab deputatlar har yili tashabbusli byudjet jarayonlari doirasida oʻz saylov okruglariga gʻolib boʻlmagan loyihalar orasidan aholining kundalik hayotiga hamda hududni rivojlantirishga bevosita taʼsir koʻrsatadigan ikkita loyihani tanlashi va ular “Ochiq byudjet” axborot portali orqali avtomatik ravishda gʻolib topilishi hamda respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qoʻyildi. Bu amaliyot mahalliy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash va fuqarolar ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Parlament diplomatiyasi geografiyasi kengaymoqda

Parlament diplomatiyasining oʻziga xos jihati shundaki, u rasmiy davlat pozitsiyasi bilan birga, jamiyat manfaatlari, siyosiy pluralizm va demokratik qadriyatlarni ham xalqaro maydonga olib chiqadi. Parlament diplomatiyasining geografiyasi kengayishi davlatlar uchun qator strategik imkoniyatlarni yaratadi. Chunki parlament diplomatiyasi orqali milliy manfaatlarni xalqaro maydonda tizimli va uzoq muddatli tarzda ilgari surish imkoniyati kengayadi.

Taʼkidlash joizki, soʻnggi yillarda parlament diplomatiyasi va parlamentlararo aloqalar tashqi siyosatimizning muhim muloqot vositalaridan birga aylandi. Parlament diplomatiyasi geografiyasi kengayib, Qonunchilik palatasining xalqaro hamkorlik aloqalari “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga mos ravishda sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarildi. Prezidentimizning faol tashqi siyosati Qonunchilik palatasining xalqaro aloqalarini rivojlantirishda muhim omil boʻlmoqda. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, ochiq, pragmatik, puxta oʻylangan va tashabbuskor tashqi siyosatimiz natijasida Oʻzbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan birga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda parlament diplomatiyasi ham yangi mazmun va ruh bilan rivojlanyapti. Bu borada barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Natijada parlament diplomatiyasi konsepsiyasi doirasida xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan koʻp qirrali hamda samarali aloqalar sifat bosqichiga chiqmoqda.

Quyi palataning parlamentlararo hamkorlik aloqalari izchil rivojlanmoqda. Oʻtgan davrda palatada 103 ta chet el delegatsiyasi, jumladan, 23 nafar parlament rahbari qabul qilindi. Deputatlar 58 ta xalqaro va parlamentlararo tadbirga ishtirok etdi.

Yangi tarkibda shakllangan Qonunchilik palatasida xorijiy davlatlar parlamentlari bilan Oliy Majlisning 56 ta parlamentlararo guruhi tashkil qilindi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga koʻtarish, parlamentlararo guruhlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida Oliy Majlis bilan Qirgʻiz Respublikasi Jogorku Keneshi oʻrtasida hamda Oliy Majlisning Xitoy Xalq Respublikasi Butunxitoy Xalq Vakillari Kengashi bilan hamkorlik boʻyicha parlamentlararo komissiyalar tuzildi.

Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yuqori sayiyada tashkil etildi. Prezidentimizning mazkur nufuzli tadbirdagi ishtiroki va tarixiy nutqi parlamentlar ishini rivojlantirish, oʻzaro hamkorlikni kengaytirishda yangi istiqbollarni ochdi. Eng muhimi, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan oʻtkazilgan mazkur nufuzli sammit mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obroʻsini yanada oshirib, Oʻzbekistonning tashabbuskor tashqi siyosatining yana bir yorqin namunasi ifodaladi.

Ochiqlik va shaffoflik – bosh mezon

Qonunchilik palatasi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish borasida oʻtgan yilda yangi tizim asosida ish tashkil qilindi. Prezidentimizning 2024-yil noyabr oyida Oliy Majlis palatalaridagi nutqlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Qonunchilik palatasining keng qirrali faoliyatini, xususan, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va saylovchilar bilan ishlash yoʻnalishlarini birdek keng jamoatchilikka yetkazish boʻyicha yangi, zamonaviy mediauslublar joriy qilimoqda.

Yigirmaga yaqin yangi loyihalar orqali qabul qilinayotgan qonunlar xalqchil va taʼsirchan uslubda ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borilmoqda. Ayniqsa, keng auditoriyaga ega boʻlgan internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda palata faoliyatini oddiy va ommabop shakl va mazmunda targʻib qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Qonunchilik palatasining rasmiy axborot resurslarini takomillashtirish, ularga murojaat qiluvchilar safini kengaytirish choralari koʻrilmoqda. Yangi yildan Qonunchilik palatasining yalpi majlislarini palataning rasmiy veb-sayti orqali jonli efirga uzatish boshlandi.

Shu kunlarda barcha fraksiya va qoʻmtalar oʻtgan yildagi faoliyati yakunlari va joriy yildagi rejalarni “ochiq parlament” formatida interfaol va kreativ uslubda, jurnalistlarning qizgʻin savollari asnosida oʻtkazilayotgan ochiq muloqotlar orqali eʼlon qilmoqda.

Shu oʻyinog oxirida Qonunchilik palatasi ham xuddi shunday ochiqlik va shaffoflik bilan oʻtgan yildagi faoliyati va joriy yildagi ustuvor vazifalarini ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida boʻlib oʻtadigan muloqotda maʼlum qiladi. Muxtasar aytganda, palata ochiqlik, shaffoflik va keng jamoatchilik bilan doimiy

IJTIMOIY HIMOYANING ZAMONAVIY TIZIMI

ISHSIZLIK VA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI KESKIN KAMAYTIRMOQDA

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish va aholi hayot darajasini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada keyingi yillarda inson qadrini ulug'lash, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar ko'lami kengaytirildi. Buning samaralari esa yurtdoshlarimizning kundalik hayotida o'z aksini topmoqda. Birgina 2025-yil davomida kambag'allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushgani, qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqqani, ilk bor 1 435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylangani buning yaqqol dalilidir.

Sarhisob

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, bu ishlar boshlanganida aholimizning uchdan bir qismi kambag'allik chegarasida yashardi. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimini yo'lga qo'yganimiz va ularni mahalladagi "yettilik"ning o'ziga berganimiz natijasida 8,5 milliondan ziyod odamlar kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik 2 karra qisqardi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kambag'allikni bartaraf qilishda turli nafaqalardan ko'ra, daromadli mehnat ustuvor ahamiyat kasb etadi, – deydi O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining birinchi o'rinbosari Marat Jo'rayev. – Shu bois oilalarning mehnatga layoqatli a'zolarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. Respublika bo'yicha reestrga kiritilgan oilalarning 62 foizi aynan kambag'allikni qisqartirishga oid xizmatlar bilan qamrab olindi. Mahallalar kesimida aholi bandligini ta'minlashga yo'naltirilgan 328 mingta mikroloyiha amalga oshirilib, ularning 82 mingtasida kambag'al oilalarning 123 ming nafar a'zosi bevosita ishtirok etdi. Bu esa mahallada ish o'rinlari yaratish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, bandlik siyosati ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda muhim tayanchga aylanmoqda. Birgina misol: Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida yashovchi Ma'rifat Ibragimovanning oilasi bundan to'rt yil oldin moddiy jihatdan tang ahvolga tushib qolgan edi. Shunday

paytda u mas'ullarning maslahati bilan bankdan 50 million so'm imtiyozli kredit olib, "Fayziniso-Amirxon" oilaviy tikuvchilik korxonasini tashkil etdi. – Boshida o'zim kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj bir ayolni ishga oldim, – deya eslaydi Ma'rifat Ibragimova. – Ikkalamiz uyimning bir xonasida, ming bir hadik va umid bilan ish boshladik. Asta-sekin ishimiz yurishib, buyurtmalar ko'paydi, moliyaviy holatimiz yaxshilandi. Shundan so'ng tuman markazida, mo'jazgina bo'lsa-da, o'z tikuvchilik seximimizni qurib ishga tushirdik. Bugungi kunda korxonamizda 30 nafardan ziyod kishilar ish bilan band. Ularning deyarli barchasi avval ishsiz bo'lgan, 12 nafarini esa nigironligi bor xotin-qizlar tashkil etadi.

Xalqimizda "Izlagan imkon topar" degan naql bor. Bir necha yil muqaddam kambag'al oila bekasi bo'lgan Ma'rifat Ibragimova tashabbuskorligi, izlanishi, qolaversa, davlatimizning moddiy va ma'naviy ko'magi bilan tadbirkor ayolga aylandi.

Farovonlik sari amaliy qadam

Qishloq joylarda kambag'allikni qisqartirishda "Tomorqa maktabi" loyihasining roli katta bo'lmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, uni farovonlik sari amaliy qadam, deyish mumkin.

Aytish kerakki, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi jamg'armasi hisobidan "Namuna Elegant Agro" MCHJga lizing tarzida 4,3 mlrd. so'm mablag' ajratilib, buning evaziga zamonaviy o'quv-amaliy markaz – "Surxondaryo innovatsion tomorqa maktabi"ga asos solingan edi. Loyiha doirasida o'quv binosi barpo qilinib, 3 gektar maydonda issiqxona, shuningdek, 3 gektar o'quv-tajriba yer maydoni tashkil etildi. – Bugungi kunda mazkur innovatsion tomorqa maktabida o'quv kurslariga usta dehqonlar,

olimlar va sohaviy mutaxassislar jalb etilgan, – deydi Marat Jo'rayev. – Dala o'quv seminarlari orqali aholiga ham nazariy, ham amaliy bilim ko'nikmalar berilmoqda. Ya'ni bir yilda 3-4-marta hosil olish, yuqori daromadli ekinlarni ekish hisobiga 1 sotix yerdan o'rtacha 10 – 15 mln. so'm daromad qilish amaliyoti o'rgatilyapti. Bu esa tomorqadan samarali foydalanish orqali kam daromadli oilalar turmush darajasini yaxshilash mumkinligini amalda isbotlamogda.

Chindan ham, Urganch tumanilik Yashnash Mayliyev 10 sotix yerdan 5 marotaba hosil olib, har sotix yerdan 10 – 15 mln. so'mgacha daromad topyapti. Uning ushbu tajribasi o'zi yashaydigan Oyog'qob' mahallasida ommalashtirilib, hudud ko'katlar

tashkil etish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu loyiha orqali 3 ming nafardan ortiq fuqarolarning bandligi ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Ayni paytda mamlakatning 9 ta tumanida jami 650 gektarda mevali bog'lar barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jumladan, Bekobod, Pop, Nurobod va Zomin tumanlarida har biri 100 gektardan, Qamashida – 50, Karmanada – 70, Romitanda – 50, Chimboyda – 46, Bo'zatovda esa 37 gektar maydonda bog'lar yaratilayotgani ushbu tashabbus qanchalik keng quloq yozayotganini ko'rsatib turibdi.

Yangi boshqaruv mexanizmi

Prezidentimizning 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni

“Mahallalar kesimida aholi bandligini ta'minlashga yo'naltirilgan 328 mingta mikroloyiha amalga oshirilib, ularning 82 mingtasida kambag'al oilalarning 123 ming nafar a'zosi bevosita ishtirok etdi. Bu esa mahallada ish o'rinlari yaratish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qilmoqda.

yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Usta dehqon mahalla aholisini birlashtirib ko'katchilik kooperatsiyasini ham ishga tushirganiga nima deysiz?! Yoki bo'lmasa, Bog'dod tumanida aholi tomorqalarida 20 gektar maydonda uzumchilik kooperatsiyasi tashkil etilganligi hisobiga 123 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanishi barobarida, doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi.

Loyiha doirasida qishloq xo'jaligining yana bir istiqbolli yo'nalishi – asalarichilikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Turkiya davlati mutaxassislari bilan hamkorlikda Jizzax va Toshkent viloyatlari iqlim sharoitlari o'rganilib, Bo'stonliq tumani pilot hudud sifatida tanlab olindi. Maqsad asalarichilikni ommalashtirib, uni yangi daromad manbalaridan biriga aylantirishdir.

Shu bilan birga, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritilgan yoki ishsiz fuqarolarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1000 gektar yer maydonlarida mevali bog'lar

qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini yaratishga qaratilgan mutlaqo yangi boshqaruv mexanizmlari amalda qo'llanmoqda.

Bu o'rinda gap yuqori natijalarga erishayotgan, tashabbuskor va amaliy tajribaga ega 50 nafar hokim yordamchisidan iborat "Loyiha menejerlari" guruhi tashkil etilgani haqida ketmoqda. Ushbu guruh

2025-yil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aholi bandligi siyosatida manzillilik kuchaydi, resurslar aniq maqsadga yo'naltirildi, ijtimoiy yordam iqtisodiy faollikka aylantirildi, mahalla va xonadon darajasida barqaror daromad modeli shakllandi. Pirovardida bundan uch yil oldin kambag'allikni 2026-yil yakuni bilan 2 karra qisqartirish bo'yicha belgilab olingan marra muddatidan avval, aniqrog'i, 2025-yilning o'zida uddalandi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ishlar joriy yilda yana keng ko'lam kasb etib, ijtimoiy farovonlik, iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishidan dalolatdir.

Faxriddin BOZOROV
("Xalq so'zi").

murojaat ancha soddalashtirish inson manfaatiga xizmat qilayotganini amalda his etaypmiz.

Bugun Andijon viloyatida bemorlarni ro'yxatga olish, tibbiy karta yuritish, laboratoriya va diagnostika natijalarini olish, shifokorlar o'rtasida ma'lumot almashish ishlari to'liq elektron shaklga o'tkazildi. Ortig'cha qog'ozbozlikka chek qo'yildi. Natijada shifokorlar asosiy vaqtini hujjat rasmiylashtirishga emas, bemor salomatligiga bag'ishlamoqda. Asosiysi, bemor qaysi tibbiyot muassasasiga murojaat qilishidan qat'i nazar, uning tibbiy ma'lumotlari yagona tizimda aks etadi. Bu takroriy tekshiruvlar sonini kamaytiradi va davolash jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Tibbiyot infratuzilmasini mustahkamlash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'tgan yilda viloyatda 130 mlrd. so'mlik qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi. Bu mablag' hisobidan Shahar va tumanlardagi tibbiyot muassasalari rekonstruksiya qilinib, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlandi. Shuningdek, 1 mlrd. so'mlik 1077 ta zamonaviy tibbiyot asbob-uskunasi olib kelindi. Natijada ilgari faqat yirik markazlarda amalga oshirilgan yuqori texnologik, murakkab jarrohlik amaliyotlarini viloyatning o'zida bajarish imkoniyati yaratildi.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

KEKSALAR HAYOTI – YOSHLAR UCHUN IBRAT MAKTABI

Ohangaronlik Xilva momo Jahonaliyeva yaqinda yuz bilan yuzlashib, o'zining ikkinchi asrlk umriga peshvoz chiqdi. 19 yoshida fermana sut sog'uvchi bo'lib ish boshlagan ayolning sochlari bugun sutdek oppoq. Xuddi qalbi va niyati kabi. Farishta sifat onaxonning 100 yoshga to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbir ham samimiy tilaklarga boy bo'ldi.



Ehtirom

– Inson aziz va mukarram. Ocharchilik azobini, urush uqubatlarini, tiklanish yillari jabrini, hayotning ko'plab achchiq-chuchuk kunlarini boshidan kechirganiga qaramasdan, hamisha halol mehnat qilgan va boshqalarni ham shunga undagan kayvonilarimiz mahallalar fayzi, yurtimiz ko'rk, – deydi "Nuroni" jamg'armasi Toshkent viloyati bo'limi boshlig'i, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Abduasamad Nosirov. – Yoshi ulug' Xilva opaning hayot yo'li yosh avlod uchun namuna maktabi. Bu kabi faxriyrlardan insoniylik saboqlarini olish orqali jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit yanada

mustahkamlanadi. Viloyatimiz bo'ylab tashkil etilayotgan uch avlod uchrashuvlarining tub zamirida ham shunday ezgu maqsad mujassam.

Ohangaron tumanida bo'lib o'tgan tantanali tadbirda respublika "Nuroni" jamg'armasi boshqaruvi raisi, O'zbekiston Qahramoni Sodiqjon Turdiyev ishtirok etdi va yuz yoshli Xilva momo Jahonaliyevani qutladi.

Otabek ISROILOV
("Xalq so'zi").

KICKINTOYLAR CHET TILINI QANDAY O'RGANADI?

Bolalikning ilk davrida xorijiy tilni o'rganish kichkintoylarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Namangandagi qator bog'chalarda fransuz tilini o'rganish borasida tashlangan qadam ayni harakatga qanot bog'ishlaydi. Hozirgi kunda viloyatdagi 24 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari "Kokoro Lingua" – bolalarga chet tillarini erta yoshdan o'rgatish dasturi asosida saboq olishga kirishdi.

Izlanish



Mashg'ulotlarga bolalar tabiiy suratda, qiziqarli usullar orqali jalb etiladi. Bunda interfaol videodarslar yordamida kelajagimiz egalarida til ko'nikmalarini shakllantirish, o'yin asosida o'rganish jarayonlariga ustuvorlik qaratilmoqda.

– "Kokoro Lingua" platformasidan foydalanishga birinchilar qatorida kirishdik, – deydi Namangan shahridagi 17-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Go'zal Tojiboyeva. – Tayyorlov guruhidagi 30 nafar tarbiyalanuvchi dasturga joylashtirilgan 10 ta videodarsga tayangan holda bir yil davomida fransuz tilini bepul o'rganadi. Tajribali pedagog Dilshoda Haydarova bolalarga kundalik so'zlashuvda qo'llaniladigan oddiy iboralar, o'yinchoqlar va harakat atamalarini tanishtirish orqali dastlabki ko'nikmalarni singdirmoqda. Kuni kecha Namanganda



"Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Fransiyadagi "Kokoro Lingua" kompaniyasining innovatsion fransuz tilini o'rganish platformasidan samarali foydalanish" mavzuida mintaqaviy seminar tashkil etildi. Unda loyiha muvofiqlashtiruvchisi Isalain Chau, vodik viloyatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlari ishtirok etdi. Tadbir davomida bolalarni chet tillariga tabiiy, qiziqarli va yosh xususiyatlariga mos uslublar asosida o'rgatish imkoniyatlarini atroficha yoritib berildi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

QO'ZIQORINNING QAYSI NAVI XARIDORGIR?

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yayotganlar safi tobora kengayib bormoqda. Bunga Armasoy tumanidagi "Chinobod" mahalla fuqarolar yig'ini hududida ishtirok qilayotgan Ravshan Boboyev o'z xonadonida qo'ziqorin yetishtirib, daromad olayotgani ham yaqqol misol bo'ladi.

Omilkorlik

– Mahallamizdagi hokim yordamchisining tavsiyasi bilan uyimizning bo'sh turgan xonalaridan biriga pesttaxtalar o'rnatib, qo'ziqorinning "veshenka" navini yetishtirishni boshladik, – deydi tadbirkor. – Buning uchun 7 mln. so'm sarflagan bo'lsak, birinchi va ikkinchi hosilning o'zida xarajatimiz to'liq qoplanib, yana shuncha daromad oldik. Ayni kunlarda yana bir hosilni yig'ib, 3-4 mln. so'mga sotishni niyat qilib turibmiz.

Qo'ziqorinning bu navi juda foydali va oqsilga boy bo'lib, xaridorlari ham ko'p. Uni yil – 12 oy davomida yetishtirib, daromad olish mumkin. Shuni hisobga olgan R. Boboyev oilaviy tadbirkorligini ikki baravarga oshirish maqsadida yana 55 kvadrat metr maydonni qo'ziqorin yetishtirishga moslab jihozlamogda.

Ulug'bek ADILOV
("Xalq so'zi").

MASOFAVIY TIBBIYOT IMKONIYATLARI



Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari sog'liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, aholiga qulaylik yaratish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va shaffoflikni ta'minlashda elektron tibbiy xizmatlarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamlashtirish

Andijon viloyatida ham elektron tibbiy karta tizimini qo'llash va shifokorlar bilan masofaviy muloqot qilish imkoniyatlari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Bu o'zgarishlar aholining kundalik hayotiga, bemor vaqtiga, xotirjamligiga va shifokor bilan

munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatayapti.

– Hozirgi kunda viloyatda aholining elektron tibbiy kartasini kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan yagona tibbiyot axborot tizimi (DMED) joriy etildi, – deydi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi

xodimi Mufazzalsho Muhamedov. – Ilgari javonlarda yillab to'planib qolgan tibbiy kartalar endi elektron ma'lumotlar bazasida saqlanmoqda. Bu naafaqt ma'lumotlar yo'qolib ketishining oldini oldi, balki ulardan tezkor va qulay foydalanish imkoniyatini ham yaratdi. Endi bemorlar uzoq masofadan turib ham tibbiy maslahat olishi, tahlil natijalarini bilishi, shifokor qabuliga elektron navbat orqali yozilishi mumkin. Bu, avvalo, bemorlarning vaqti tejalisiga, navbatlar kamayishiga xizmat qilmoqda.

Tibbiyot sohasidagi islohotlar shifokor bilan bemor o'rtasidagi muloqotni ham ancha yengillashtirdi. Ilgari shifoxonada yotgan bemor tibbiyot xodimini chaqirish uchun uning xonasiga borishiga to'g'ri kelardi. Hozir esa yotgan joyida maxsus tugmani bosish orqali hamshira yoki shifokorni chaqirishi mumkin. Chiqiruv haqidagi ma'lumot tibbiyot xodimining qo'lidagi quurilmaga darhol yetib boradi.

– Avvallari bir kishi kasal bo'lsa, ortidan butun oila sarson bo'lardi, – deydi bemor Sanobarxon Qahhorova. – Hozir esa uyda turib navbat olish mumkin. Shifoxonadagi sharoitlar yaxshi: uch mahal issiq ovqat, doimiy issiq va sovuq suv bor. Eng muhimi, tibbiyot xodimlariga

Endilikda eng ko'p kitob o'qigan "TOP – 100" talikka kiradigan o'quvchi va talabalarning har biriga BHMning 25 baravari miqdorida pul mukofoti beriladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'ktir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.23 Topshirildi – 01.50 1 2 3 4 5 6